

Date: 5th January-2026

ANTIK ADABIYOT VA O'ZBEK ADABIYOTI. "ODISSEYA" VA "ALPOMISH" DOSTONLARI TAHLILI

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

(Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi)

Annotatsiya: Maqolada "Odisseya" va "Alpomish" dostonlari tahliliga atroflicha to'xtalib o'tilgan

Kalit so'zlar: azaliy urf-odat, kurash, to'y- tomosha, Afina, Itaka, Penelopa, Telemax.

"Aqliy hujum" uchun savol:

1. "Odisseya" va "Alpomish" dostonlaridagi o'xshash motivlar haqida nimanlarni bilasiz?

**"Odisseya" va "Alpomish" asarlari syujeti va asosiy obrazlaridagi o'xshash va farqli
jihatlarni solishtiring.**

(gadoy qiyofasidagi Odissey	– Qultoy qiyofasidagi Alpomish,
Penelopa	– Barchinoy
Telemax	-Yodgor
kuyovlar	– Ultontoz

Mavzuni o'rganish jarayonida: – "Odisseya" va "Alpomish" dostonlaridagi o'xshash motivlarni solishtiramiz.

Homerga nisbat beriladigan– "Odisseya"da Troya urushi ishtirokchilaridan biri, Itaka shohi Odisseyning uyiga qaytishdagi sarguzashtlari bayon qilinadi. Urush tugaganidan o'n yil o'tib ham Odissey dengiz ma'budi Poseydonning jahlini chiqargani uchun Itakaga qayta olmaydi. Bu paytda Itakada Odisseyning boyligi va rafiqasiga ko'z olaytirgan "kuyovlar" Penelopaning qo'lini so'rab, uni nomzodlardan biriga turmushga chiqishga majburlashadi. Kuyovlarni aldash maqsadida vafodor Penelopa kafanlik to'qishini va uni to'qib bo'lgandan keyingina qayta turmushga chiqishini aytadi, lekin vaqtni cho'zish maqsadida kunduzi to'qiganini kechasi so'kib yuboradi. Ma'buda Afina Itakaga kelib, Telemaxdan otasi Odisseyini izlab topishini so'raydi. Telemax Sparta shohi Menelaydan otasining lipso orolida tutqunlikda ekanini bilgach, Itakaga qaytadi. Bu orada ma'budlarning amri bilan Kalipso ham Odisseyini ozod etadi va u Afi na yordamida qiyofasini o'zgartirib, Itakaga qaytadi. Odissey va Telemax sodiq xizmatkorlari Evmeyning uyida uchrashishadi. Odissey og'liga sirni ochadi va ular kuyovlarni jazolash rejasini tuzishadi. Gadoy qiyofasidagi Odissey o'z uyiga boradi. Enagasi Evrikleya uning oyoqlarini yuvayotgan paytida chandiqlaridan tanib qoladi, lekin Afinaning sehri tufayli bu sirni Penelopaga ayta olmaydi. Afinaning maslahati bilan Penelopa kuyovlarga bir shart qo'yadi: kim Odisseyning kamonidan o'q uzib, o'qni o'n ikki halqadan o'tkaza olsa, Penelopa o'shanga turmushga chiqadi. Yolg'iz Odisseygina bu shartni bajara oladi va kuyovlarni o'ldirib, Penelopaga o'zining kimligini oshkor qiladi. "Odisseya" dostonidagi bedarak ketgan qahramonni vafodor yori uzoq kutishi va uning boshqalar tomonidan



Date: 5th January-2026

ikkinchi marta turmush qurishga majburlanishi, bosh qahramon uyga qaytganda sodiq xizmatkori uning tanasidagi belgidan tanib olishi, qahramonning boshqa qiyofada hech kim o'q uza olmaydigan kamonidan o'q otishi singari voqealarda o'zbek xalqining "Alpomish" dostoni bilan yaqinlikni kuzatish mumkin.

«Alpomish» xalqimiz og'zaki ijodidagi eng qadimiy, badiiy jihatdan mukammal, olimlar tomonidan ko'p o'rganilgan dostonidir. Unda o'zbekning uzoq o'tmishi, rasm-rusumlari, hayot tajribasidan o'tgan an'analari, kurashlari, tashvishlari, quvonchlari o'zining badiiy ifodasini topgan. *Baxshilar mahorati bu dostonni ijro etish darajasi bilan o'lchangan.* Ustoz dostonchilar o'z san'atlarini ko'pincha «Alpomish»ni kuylash bilan ko'rsatganlar, hurmat topganlar. Dostonning ming yillik to'yida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: «Bizga «Alpomish» dostoni insonparvarlik fazilatlaridan saboq byeradi. Odil va haqgo'y bo'lishga, o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozarlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi», – degan edi. Bu fikrda dostonning mohiyati, g'oyasi, badiiyati, millatimiz tarixida tutgan o'rni mujassam etilgan. O'zbekiston mustaqil bo'lganidan so'ng «Alpomish»ga bo'lgan munosabat ham o'zgardi.

Dunyodagi qabila, urug', elat tarixda alohida xalq sifatida shakllanar ekan, bu jarayon, avvalo, qahramonlik eposi hisoblangan maxsus yirik, epik asarda badiiy ifodasini topadi. Professor Bahodir Sarimsoqov dostonni o'zbekning birlashuvi, mustaqil xalq sifatida paydo bo'lishida qanday o'ringa ega ekanini ta'riflab, shunday deydi: «Dastlab qabila, so'ngra elat eposi sifatida vujudga kelgan «Alpomish» dostoni keyinchalik, o'zbek xalqining qahramonlik eposi sifatida tan olindi». Dostonda mifik dunyoqarash belgilaridan bir qator namunalar bor. Yoy, o'q, tush, qo'riq kabilar fetish (mif haqidagi mavzuni eslang), ot, tuya, g'oz kabi hayvon va qushlar totem tushunchalar ifodasi sifatida aks ettirilgan. Hakimbek bobosi Alpinbiydan qolgan yoy yordamida Alpomish nomini oldi. Qadim zamonlarda bolalarga ism qo'yish odati bo'lmagan. Farzand voyaga yetib, bironta mardlik ko'rsatganidan keyin ism olgan. Dostonda Hakimbek qahramonimizning katta mardlik ko'rsatguniga qadar bo'lgan muddatdagi ismi bo'lib qolgan. Shuningdek, Qorajon tushida musulmonlikni qabul qiladi. Agar dostonni e'tibor bilan o'qisak, bunga o'xshash juda ko'p lavhalarga duch kelamiz.

«Alpomish» dostoni yuzasidan savol- javoblar asosida takrorlash.

1. Parchadagi so'z qaysi personajga tegishli? «Bu to'y o'g'illining o'g'lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?! O'zing o'lsang, molingga har merosxo'r chiqadi, og'ziga odam kirib ketadi»
2. Quyidagi so'zlar kimga tegishli? «Tortib olib bo'lmasa, sotib olib bo'lmasa, Xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!»
3. Kim: «Bola kunda tutadigan quyonchiq kasalim bor edi. Shul vaqt tutib qoldi», – dedi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.To'xliyev va boshqalar Adabiyot.(11-sinf va o'rta maxsus uchun darslik-majmua). O'zbekiston milliy esklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti T, 2018



Date: 5th January-2026

2. B.To‘xliyev. Adabiyot (ALLarning I kurs talabalari uchun majmua). – T. 2013.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

